UO‘K: 94(575.1)

TURKISTONGA ROSSIYALIK OCHLARNING EVAKUATSIYASI

S.S. To‘raxo‘jayev

Maqolada XX asrning 20-yillarida Rossiyaning Volgabo‘yi va Uraloldi hududlaridagi och qolgan aholi vakillarining Turkiston ASSR hududiga evakuatsiya qilinishi, ularning joylashtirilishi, oziq-ovqat, kiyim-kechak bilan ta’minlanishi borasida o‘lka hukumati tomonidan amalga oshirilgan chora-tadbirlar o‘rganilgan. Turkistonga evakuatsiya jarayonlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar arxiv materiallari, ilmiy adabiyotlar asosida tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: *ocharchilik, ochlarga yordam komissiyasi, ocharchilik hududlari, evakuatsiya, oziq-ovqat, boshpana, internat, bolalar uyi.*

В статье на основе архивных материалов и научной литературы рассматривается эвакуация голодающего населения Поволжья и Зауралья на территорию Туркестанской АССР в 1920-х годах. Освещаются меры региональных властей по обеспечению переселенцев продовольствием, одеждой и предметами первой необходимости. Анализируются причины и процессы эвакуации, а также помощь, оказанная правительством и населением Туркестана прибывшим голодающим переселенцам.

Ключевые слова: *голод, Туркестанская АССР, эвакуация, помощь голодающим, Поволжье, Зауралье, продовольственное обеспечение, детский дом, школа-интернат.*

KIRISH

Mustaqillikning qo‘lga kiritilishi ko‘p millatli O‘zbekistonda millatlararo tinchlik, xotirjamlik va barqarorlik ta’minlanishiga, tinch va osuda hayot hukm surishiga ta’sir ko‘rsatdi. Xususan, respublikada istiqomat qilayotgan barcha xalqlarning o‘tmishi va ular o‘rtasida o‘zaro hurmat, teng huquqlilik va hamjihatlik munosabatlari tarixini o‘rganishga jiddiy e’tibor qaratilmoqda. Bu haqda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev quyidagi fikrlarni alohida ta’kidlab o‘tgan: “eng asosiy boyligimiz bo‘lgan va biz haqli ravishda faxrlanadigan ko‘p millatli xalqimizning birdamligi va jipsligini ko‘z qorachig‘idek asrash hamda yanada mustahkamlash O‘zbekistonni o‘z Vatani deb biladigan har bir insonning muqaddas burchidir. Biz faqat shu yo‘l bilan bugungi kunning barcha tahdid va xavf-xatarlariga samarali qarshi turishimiz, o‘zimiz tanlagan demokratik taraqqiyot yo‘lida yanada salmoqli natijalarga erishishimiz mumkin” [1. B. 29]. Shu bois O‘zbekistonga o‘z paytida kelib qolgan millat va elatlar tarixini o‘rganish davlat siyosatining muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Zero, davlatlarning xavfsizligi va taraqqiyoti eng avvalo millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik munosabatlarining oqilona yo‘lga qo‘yilishi bilan uzviy bog‘liqdir.

1921–1924-yillarda Turkistonda aholi migratsiyasi, ya’ni qochoq, evakuatsiya va reevakuatsiya jarayonlari masalasi Vatan tarixshunosligining dolzarb mavzularidan sanaladi. Biroq ushbu masala, ya’ni Turkistonga 1921-yilning bahorida Rossiyaning markaziy guberniyalarida yuz bergan ocharchilik sababli qochoq va evakuatsiya tariqasida kelgan xalqlarning joylashtirilishi, keyinchalik ularning o‘z yurtiga reevakuatsiya qilinishi, bu jarayonlarga o‘lka hukumati va aholisining munosabati, sovet mustamlakachilik tizimining Turkiston ASSRdagi roli bugunga qadar maxsus tadqiq etilmagan.

Turkistonning Rossiya ochlariga ko‘rsatgan yordami va ocharchilikka qarshi kurashidagi ishtiroki masalalari B.L.Manelis, I.Vertel, S.Bakenov tomonidan o‘rganilgan [2, 3, 4, 5]. Ushbu tadqiqotlarda Turkistondagi Ochlarga yordam markaziy komissiyasi, sovet tashkilotlari, jamoat birlashmalarining ochlarga ko‘rsatgan yordami hamda o‘lkaga kelgan ochlar to‘g‘risidagi statistik ma’lumotlar ma’lum ma’noda o‘z aksini topgan.

Rossiyaning Volgabo‘yi, Uraloldi guberniyalarida yuz bergan ocharchilikni bartaraf etishda Turkiston xalqlarining ko‘rsatgan yordami F.Nabiyev, Q.Rajabov, A.Rasulov tadqiqotlarida yoritib berilgan [6, 7, 8]. Ushbu tadqiqot ishlarida, Turkistondagi ocharchilik oqibatlari, o‘lkaga Volgabo‘yi, Uraloldi hududlarida ochlikdan azob chekayotgan bolalar-

ning evakuatsiya qilinishi, ularga o‘lka aholisining beg‘araz yordami haqida ma’lumotlar keltirilgan. Ammo 1921–1924-yillarda Turkistondagi migratsiya masalasi Vatan tarixining ajralmas bir bo‘lagi sifatida yaxlit tadqiq etilmagan, bu esa mazkur mavzuni maxsus o‘rganishni taqozo qiladi.

MATERIAL VA USULLAR

Mavzuni bayon etishda O‘zbekiston Milliy arxivida saqlanayotgan R.17-fond, R.25-fond, R.29-fond va R.621-fond materiallari tahlil qilindi [9, 10, 11, 12, 13, 14, 15, 16, 17].

Shuningdek, Turkiston ASSR hukumati va kompartiyasining matbuot organlari bo‘lgan gazetalar sahifalarida 1919–1924-yillar davomida chop etilgan mavzuga oid maqolalar o‘rganilib, tahlil qilindi [18, 19].

Muammoni o‘rganishda statistik tahlil, tarixiy-qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanildi.

NATIJA VA MUHOKAMA

1921-yili Rossiyaning Volgabo‘yi, Uraloldi hududlarida yoz faslida bo‘ladigan issiq aprel oyida boshlanishi ortidan ekinzorlar qurib qoldi va kuzda hosilsizlik yuzaga keldi. Natijada Rossiyaning Tula, Kaluga, Oryol, Samara, Orenburg, Saratov, Volgograd va boshqa guberniyalarida ocharchilik boshlagan. Ocharchilik yuz bergan hududlarda jami 35 milliondan ortiq aholi istiqomat qilgan. Shulardan 30 millioni qishloq aholisi bo‘lgan. Bu aholining 2 millionga yaqini ochlikdan vafot etgan, 1 million bola esa yetim qolgan [20. B. 42]. 1921-yil o‘rtalariga kelib ocharchilik Tatariston, Boshqirdiston, Ukraina, Qrim va Qozog‘iston hududlarida ham ro‘y bergan. 1921-yili RSFSR Butunrossiya Markaziy ijroiya qo‘mitasi (BMIQ) qoshida jabrlangan hududlar aholisiga yordam ko‘rsatish maqsadida favqulodda komissiya tashkil etilgan [21. B.10]. Biroq ocharchilik ro‘y bergan hududlarning imkoniyatlari ushbu falokatga qarshi kurashga yetarli emas edi.

Sovet Rossiyasi och qolgan aholini oziq-ovqat bilan ta’minlashda o‘z tarkibidagi “hosildor deb topilgan” respublikalardan foydalangan. Xususan, sovet Rossiyasi Turkiston ASSRni ham “hosildor” deb topib, bu yerda Rossiyaning iqtisodiy manfaatlarini qondirish uchun o‘ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy tadbirlarni amalga oshirgan. BMIQning 1921-yil 9-mayda bo‘lib o‘tgan yig‘ilishida, Rossiyaning iqtisodiy ahvolini inobatga olib, Oziq-ovqat xalq komissarligiga favqulodda vakolatlar berish zarurligi yuzasidan qaror qabul qilingan. Qarorda keltirilgan vakolatlarga ko‘ra, Oziq-ovqat xalq komissari A.E.Badayev 1921-yil may oyi oxirida Toshkent va Samarqandga kelgan hamda Rossiyaning markaziy guberniyalarida kuchayib borayotgan og‘ir vaziyatdan kelib chiqib, ocharchilik mintaqalari uchun Turkistondan oziq-ovqat yordami tashkil etilishini o‘lka ma’murlari zimmasiga yuklagan [22. B. 38].

Holbuki, bu paytda Turkiston aholisi yaqin orada bo‘lib o‘tgan ocharchilikdan hali o‘ziga kelishga ulgurolmagan edi. Chunki 1917–1919-yillari Turkistonda bo‘lib o‘tgan ocharchilik davrida aholi o‘lkadan rasman hech bir hududga ko‘chirilmay, uzuq-yuluq yordamlarga ko‘nikib, “o‘z yog‘iga o‘zi qovurilib”, bir kunini o‘tkazib kelayotgan edi. Markaz tomonidan g‘alla ta’minoti bo‘yicha ko‘rsatmalar berilgan bir paytda, o‘lkaning o‘zida oziq-ovqat mahsulotlari yetarli darajada emasdi. Masalan, 1921-yil hisob-kitoblariga ko‘ra, Turkistonning 5 mln. 658 ming aholisiga 84 mln. 876 ming pud g‘alla kerak bo‘lgan [9. B. 5]. Ya’ni, har bir kishiga oziq-ovqat, hayvoni uchun yemish, ekishga urug‘lik hisobidan 15 puddan g‘alla zarurat hisoblangan. Shunga qaramasdan, Turkiston o‘lkasi ocharchilik hududlariga oziq-ovqat yetkazib berish bo‘yicha RSFSRda yetakchilar qatorida bo‘lgan. Jumladan, 1921-yil dekabrda Orenburgga Bryanskdan 4 ming pud g‘alla, Moskvadan 4 vagon oziq-ovqat mahsulotlari, Vitebskdan 15 vagon qora javdar uni, Semipalatinskdan 30 vagon g‘alla yuborilgan vaqtda Toshkentdan 54 vagon bug‘doy jo‘natilgan [21. B. 12]. Tarixiy manbalar shundan dalolat beradiki, Markaz tomonidan 1917–1919-yillarda Turkistonda bo‘lib o‘tgan ocharchilik davrida aholini hosildor hududlarga evakuatsiya qilish yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqilmagan bo‘lsa-da, 1921–1923-yillardagi Volgabo‘yi, Uraloldi hududlaridagi ocharchilik davrida aholini uyushgan holda evakuatsiya qilish, och-qochoqlar masalasi va keyinchalik ularni o‘z yurtiga reevakuatsiya qilish yuzasidan tegishli tarzda chora-tadbirlar ishlab chiqilgan.

RSFSR rahbariyati qurg‘oqchilik domiga tortilgan aholi vakillarini ushbu ofatdan qutqarishning muhim chorasi sifatida ochlarni boshqa hududlarga ko‘chirish lozim deb bilgan. Evakuatsiya qilinuvchilarni qabul qiluvchi hududlar sifatida Turkiston, Sibir va Ukraina mintaqalari tanlab olingan [22. B. 46]. Aslini olganda, 1921-yil may oyidan boshlab Volgabo‘yi, Boshqirdiston va Qozog‘iston hududlaridagi ocharchilik azobidan qiynalayotgan minglab odamlar o‘zga yurtlarga ko‘chib ketish taraddudiga tusha boshlagan. Xususan, och qolgan aholi vakillari oziq-ovqat topish ilinjida Turkistonga uyushmagan holda, ya’ni och-qochoq sifatida kela boshlagan. Shuni qayd

etish lozimki, och-qochoqlar oqimi evakuatsiya bilan deyarli bir paytda, ya'ni 1921–1923-yillar davomida ko'zga tashlanadi.

1921-yil bahoridan boshlab, Orenburg guberniyasidagi vaziyat tufayli aholining katta qismi och-qochoq sifatida Turkiston hududiga tartibsiz ravishda kela boshlagan. Masalan, 1921-yil 2-mayda V.I.Leninning Turkiston oziq-ovqat xalq komissarligiga yuborgan telegrammasida Rossiyaning ocharchilik yuz bergan guberniyalarida och qolgan aholi vakillarining non va yegulik izlab Turkiston hududiga qochib kelayotganligini inobatga olib, ularni non va non mahsulotlari bilan ta'minlash bo'yicha topshiriq berilgan. Ushbu topshiriq ijrosini bajarish maqsadida o'lka hukumati va oziq-ovqat komissarligi Volgabo'yi, Uraloldi hududlaridan kelgan 185 nafar och-qochoqni oziq-ovqat, kiyim-kechak mahsulotlari bilan ta'minlaydi. Jumladan, ular 150 dona kiyim-kechak, arshin va to'qimachilik gazlamalari, 128 pud oziq-ovqat va 65 pud baliq mahsulotlari bilan ta'minlangan [10. B. 59].

O'lkaga panoh izlab kelayotgan och-qochoqlar soni kundan kunga ko'payib borgan. Chunki Volgabo'yi, Uraloldi hududlaridagi boshqaruv organlari tashkiliy jihatdan evakuatsiyani uyushtirishidan avval aholining ma'lum bir qismi och-qochoq bo'lib, temir yo'l stansiyalariga borib yuk tashish vagonlari orqali bo'lsa ham, Turkistonga yo'l olganlar. Och-qochoqlar Turkiston uchun "kutilmagan mehmon" bo'lsa-da, Turkiston MIQ va XKS markaz ko'rsatmalari asosida ularni qabul qilish, boshpana va oziq-ovqat bilan ta'minlash vazifalarini bajarishga kirishgan. Masalan, 1921-yil iyun-iyul oylarida Toshkentga Rossiyaning ocharchilik hukm surayotgan guberniyalaridan 547 nafar och-qochoq kirib kelgan. Natijada ularga 370 ta kiyim-kechak va choyshab berilgan [11. B. 209].

Volgabo'yi, Uraloldi hududlaridagi ochlarni evakuatsiya qilish masalasida BMIQ huzuridagi M.I.Kamenin boshchiligida 1921-yil 18-iyulda tashkil etilgan Ochlarga yordam markaziy komissiyasi jonbozlik ko'rsatgan. Ayni paytda Rossiyaning ocharchilik hududlaridan uyushgan holda evakuatsiya qilinayotganlarni qabul qilish, och-qochoqlarga yordam berish va boshqa tashkiliy masalalar bilan shug'ullanish 1921-yil 21-iyulda Turkiston MIQ qoshida tuzilgan Ochlarga yordam ko'rsatish markaziy komissiyasi zimmasiga yuklatilgan. Ochlarni qabul qilish va ularga har tomonlama yordam ko'rsatishda o'lka viloyatlarida, uyezd-shaharlarida tashkil qilingan ochlarga yordam komissiyalari ham evakuatsiya tariqasida va och-qochoq bo'lib kelayotganlarni joylashtirish, ularning oziq-ovqat, kiyim-kechak, boshpana ta'minoti bilan shug'ullanganlar [12. B. 209].

BMIQ va RSFSR XKS tomonidan dastlab, 1921-yil iyul oyi oxirlarida, Volgabo'yi, Uraloldi hududlaridan 100 ming nafar och aholi Turkistonga rasman ko'chirilishi belgilangan. Ocharchilik hududlaridan uyushgan holda ko'chirilayotgan 100 ming nafar och aholining Sirdaryo, Samarqand va Turkman viloyatlariga joylashtirilishi bo'yicha ko'rsatmalar berilgan. Markaz tomonidan berilgan ushbu ko'rsatmalarda ochlarni Yettisuv viloyatiga ko'chirish belgilanmaganligiga sabab Yettisuv viloyatiga temir yo'l yetib bormaganligi edi. Ochlarni Farg'ona viloyatiga ko'chirmaslikka sabab esa, birinchidan, viloyat aholisining o'zi endigina ocharchilikni boshidan o'tkazib, o'zini "o'nglashga ulgurib-ulgurolmagan"ligi edi. Ikkinchidan, Farg'ona viloyati aholisi joylarda zich yashashi bilan birga, Turkistonda yetishtiriladigan paxtaning asosiy qismini berar, aholining aksariyatida ochlarga yordam ko'rsatish imkoniyati cheklangandi. Boz ustiga, Farg'onada 1918-yildan beri qurolli qarshilik harakatlari davom etayotgan edi.

Rossiyaning ocharchilik hukm surgan guberniyalaridan aholini uyushgan holda evakuatsiya qilish 1921-yil iyul oyi oxiri-avgust oyi avvalida boshlangan. Ayni paytda Turkistonning o'zida Rossiyadan evakuatsiya va och-qochoq tariqasida kelganlarni kutib olish bo'yicha keng qamrovli tayyorgarlik ishlari olib borilgan. Xususan, evakuatsiya tariqasida keladiganlarni temir yo'l vokzallarida qabul qilish, ularni avvaldan tayyorlangan hududlarga yuborish, boshpana va oziq-ovqat bilan ta'minlash kabi tashkiliy masalalar amalga oshirilgan.

Ammo Turkistonga ochlar evakuatsiyasi, och-qochoqlar kelishi ma'lum bir qiyinchiliklar, muammolarni yuzaga keltirgan. Birinchidan, ochlarni qabul qilishda Turkistonda avvaldan hamda puxta tayyorgarlik ko'rishning iloji bo'lmagan. Ikkinchidan, evakuatsiya qilinayotganlar soni kundan kunga ko'payib borgan. Markaz Volgabo'yi, Uraloldi hududlaridan ochlarni vagonga joylab, Turkistonga yuborish bilan "o'z vazifasini" bajargan. Turkistonga keltirilgan ochlarni qabul qilish, ularni tibbiy ko'rikdan o'tkazish, ro'yxatga olish, joylarga tarqatish, oziq-ovqat, kiyim-kechak, boshpana bilan ta'minlash Turkiston MIQ, XKS hamda Turkiston Ochlarga yordam ko'rsatish markaziy komissiyasi mas'ul xodimlari zimmasida edi.

Volgabo'yi va Uraloldi hududlaridagi ocharchilik qamrovi kundan kunga aholini o'z domiga tortib, joylardagi boshqaruv organlarini sarosimaga solib borar edi. Shu sababli markaz ochlarning 100 ming nafari Turkistonga ko'chirilishini yetarli emas deb topgan. Shunday qilib, hali Turkistonga 100 ming nafar och aholini ko'chirish to'g'risidagi markaz qarori rasman amalga oshirilmasdan avval, xususan, 1921-yil 8-avgustidayoq, Turkistonga 200–220 ming och aholini ko'chirish to'g'risida qo'shimcha ko'rsatma berilgan. Shuni qayd etish lozimki, BMIQ Turkiston MIQ va XKSdan o'z qaramog'iga qancha miqdorda ochlarni qabul qilish imkoniyati borligi to'g'risida, xususan, o'l-

kaga qancha ochlar evakuatsiya qilinishi mumkinligi bo‘yicha ham so‘rab o‘tirmagan [18. B. 2].

Turkistonga Volgabo‘yi, Uraloldi hududlaridan rasman ko‘chirilayotgan aholi miqdori dastlab 100 ming, keyin 200–220 ming, undan so‘ng 320 ming nafar deb belgilangan. Ko‘chib kelayotganlar miqdordagi bunday keskin o‘zgarishlar taxminan 1 yoki 1,5 oy atrofida ro‘y berib, bu ocharchilik falokati kundan kunga aholining barcha qatlamini o‘z domiga tortayotganidan dalolat edi. Biroq 1921-yil sentabr oyida Volgabo‘yi, Uraloldi hududlaridagi ochlarni Turkistonga ko‘chirish jarayoni och-qochoqlar oqimi tufayli amalda izdan chiqa boshlagan. Jumladan, Turkistonga rossiyalik ochlarni evakuatsiya qilishda vagonlar, parovozlar yetishmagan. Toshkent tomon yo‘l olgan eshelonlar tirbandlik, temir yo‘lchilar faoliyatidagi boshboshdoqlik tufayli bir necha kunlab temir yo‘l ochilishini kutishiga to‘g‘ri kelgan. Boz ustiga, aholini ko‘chirish jarayonida ular orasida turli yuqumli kasalliklar tarqalgan.

Evakuatsiya tariqasida Rossiyaning ocharchilik hukm surayotgan guberniyalaridan kelayotganlar oqimi kundan kunga ko‘paygani sababli 1921-yil 8-sentabrda Turkiston MIQ qoshidagi Ochlarga yordam ko‘rsatish markaziy komissiyasi ushbu masalani qaytadan ko‘rib chiqdi. Mazkur masalaga oid majlis bayonnomasiga ko‘ra, evakuatsiya tariqasida kelayotgan ochlar bilan to‘la vagonlardan qanchasini qabul qilish imkoniyati muhokama qilingan. Turkiston temir yo‘l aloqalari okrugi ekspluatatsiya bo‘limi boshlig‘i Denisov Turkiston MIQ qoshidagi Ochlarga yordam ko‘rsatish markaziy komissiyasi rahbariyatiga bir sutka davomida Toshkentda 47 ta vagondagi ochlarni qabul qila olishi, Krasnovodsk orqali esa 18 ta vagondagi ochlarni qabul qilish imkoniyati borligini bildirgan. Ayni paytda, Denisov o‘zi tomonidan berilgan ma’lumotga qo‘shimcha qilib, evakuatsiya jarayonini o‘ta tezlashtirish muammolarga olib kelishi mumkinligini bildirish bilan birga, shu paytning o‘zida Kinelda 840 ta vagon to‘planib qolgani, ulardan 90 tasi, Batrik stansiyasida 300 ta vagon to‘planib, ulardan 30 tasi, Toshkent yo‘lida 18 ta poyezd sostavi to‘xtab qolib, ulardagi 3 ta vagonda evakuatsiya qilingan ochlar borligini ta’kidlagan [13. B. 5].

Turkistonga 1921-yil 1-oktabrda Samara guberniyasidan 70 ming nafar aholi ko‘chib kelgan, jumladan, ularning 50811 nafari Samarqand viloyatiga joylashtirilgan. Ulardan 27125 nafari Samarqand qishloqlariga, 13919 nafari Samarqand, 8415 nafari Jizzax, 1200 nafari Juma, 62 nafari Kattaqo‘rg‘on uyezdlariga joylashtirilgan [19. B. 1]. Ko‘chib kelganlar ro‘yxatdan va tibbiy ko‘rikdan o‘tkazilib, maktablarga, internatlarga, aholi xonadonlariga joylashtirilgan va oziq-ovqat bilan ta’minlangan. Turkiston Ochlarga yordam ko‘rsatish markaziy komissiyasi Rossiyadan ko‘chirilganlarga dastlab 5000 arshin gazmolni xayriya qilgan bo‘lsa, keyinchalik yana 10 ming arshin gazmol ajratgan. Kelgan ochlarning miqdori ko‘pligi, kiyim-kechagi yupunligi va ularga choyshablar tikish zarurati tufayli, Turkiston XKSning 1921-yil 5-noyabrdagi qaroriga ko‘ra, migratsiya bo‘lib kelganlar uchun yana 240 ming arshin gazmol ajratilgan [14. B. 406].

Turkistonga kelayotganlarning ma’lum bir qismi kasalmandligi, ishga yaroqsizligi, kiyim-kechagi yupunligi, keksaligi, yosh bola ekanligi va boshqa sabablar tufayli ularga shart-sharoit yaratishda muammolar yuzaga kelgan. Lekin, bu kabi qiyinchiliklarga qaramasdan, Volgabo‘yi, Uraloldi hududlaridan Turkistonga evakuatsiya qilinganlar 1921-yil oxiriga qadar rasman 50811 nafarni tashkil qilgan [19. B. 1].

Yuqorida ta’kidlanganidek, Rossiyaning ocharchilik hukm surgan hududlaridan Turkistonga evakuatsiya qilish o‘ziga xos murakkabliklarga va muammolarga ega edi. Xususan, Volgabo‘yi, Uraloldi hududlaridagi ommaviy ocharchilik va uning qamrovi kundan kunga keng yoyilishi joylardagi boshqaruv tizimida faoliyat olib borayotgan partiya va sovet organlari xodimlarini sarosimaga tushirib qo‘ygan. Masalan, ocharchilik azobini tortayotganlarni ro‘yxatga olish, ularni hosildor hududlarga evakuatsiya qilishga undash, ochlarni bir joyga yig‘ish, temir yo‘l stansiyalariga olib kelish, shart-sharoitiga qarab vagonlarga joylash, yo‘lga oziq-ovqatini ta’minlash kabilar evakuatsiyani uyushtirish bilan bog‘liq muammolar qatorida bo‘lgan.

Markazning topshirig‘iga ko‘ra, 1921-yil 21-iyulda Turkiston MIQ qoshida “Ochlarga yordam markaziy komissiyasi” tashkil etilgan. Mazkur komissiyaning viloyat, uyezd-shahar, qishloq va ovullarda ham bo‘limlari tashkil etilgan bo‘lib, ularning zimmasiga oziq-ovqat mahsulotlarini to‘plash, xarid qilish hamda tadbirlar, xayriyalar uyushtirish, shu yo‘l orqali yig‘ilgan mahsulotlarni Rossiyaning ocharchilik hududlaridan och-qochoq va evakuatsiya tariqasida kelganlarga berish vazifasi yuklatilgan. 1921-yil 25-iyulda “Izvestiya” gazetasida “Ochlarga yordam berish markaziy komissiyasi”ning “Barcha ishchilar, dehqonlar va mehnatkashlarga” deb nomlangan murojaati chop etilgan. Unda Rossiyaning g‘alla yetishtiruvchi markazlarida ocharchilik yuz bergani, u yerlarda 10 mln.dan ortiq aholi vakillari och qolgani, ular orasida qariyalar va bolalar ochlik azobidan vafot etayotgani, hatto guberniyalarning qishloq xo‘jaligi butunlay izdan chiqqani, agar favqulodda choralar ko‘rilmasa, sovet Rossiyasi qishloq xo‘jaligi ham izdan chiqishi mumkinligi, shuningdek, turkistonliklar ochlikdan qiynalayotgan guberniyalar aholisiga ko‘maklashish, ochlar uchun g‘alla, paxta yog‘i, quritilgan meva va kiyim-kechaklarni yig‘ib berish hamda o‘lkaga kelayotganlarga

ko‘maklashish bo‘yicha chaqiriqlar bayon etilgan [15. B. 176]. Bundan tashqari, Turkiston MIQ qoshidagi Ochlarga yordam ko‘rsatish markaziy komissiyasi nafaqat o‘lkaga Rossiyadan evakuatsiya tariqasida kelgan ochlarga, balki o‘sha ocharchilik guberniyalaridan ko‘chirilayotganlarga ham manufakturadan yordam bergan. Masalan, 1921-yil avgustda Samara guberniyasidan och bolalarning Turkistonga evakuatsiyasi jarayonida ularni toza kiyim va choyshab bilan ta’minlash zarurati tug‘ildi. Shu masala yechimi yuzasidan Samara guberniyasi xalq maorifi bo‘limi Turkiston MIQ Ochlarga yordam ko‘rsatish markaziy komissiyasiga murojaat qilib, bolalarni evakuatsiya qilishda choyshab, ichki kiyim va ko‘ylak tikish uchun manufakturadan yordam berishni so‘ragan. O‘z navbatida, mazkur masala yechimida Turkiston MIQ huzuridagi Ochlarga yordam ko‘rsatish markaziy komissiyasi Samaradan Turkistonga evakuatsiya qilinadigan bolalar uchun 3000 arshin manufakturani zudlik bilan ajratgan [23. B. 141].

Qayd etish lozimki, bolalarni Turkistonga evakuatsiya qilish masalasida markaz tomonidan dastlab 25 ming bolani Turkiston o‘z qaramog‘iga olishi belgilangan edi. Turkiston MIQ va XKS Volgabo‘yi, Uraloldi hududlaridan evakuatsiya qilinadigan bolalarni maktab, internat, bolalar uylariga, shuningdek, aholi xonadonlariga ham joylashtirishni zarur deb topgan. Amalda bolalarni Turkistonga uyushgan holda evakuatsiya qilish 1921-yil 10-iyunida boshlangan va o‘lka hududiga dastlabki bosqichda 377 nafar bola yetib kelgan. Bolalar evakuatsiyasi ham o‘ziga xos murakkabliklarga ega bo‘lib, uning yechimida Turkiston MIQ qoshidagi Ochlarga yordam ko‘rsatish markaziy komissiyasi nafaqat kelayotganlarni qabul qilish, tarqatish, oziq-ovqat va boshpana bilan ta’minlash, balki boshqa ko‘zda tutilmagan vazifalarni bajarish bilan ham shug‘ullangan. Evakuatsiya tariqasida Turkistonga yetib kelganlardan yo‘lda kiyish uchun berilgan bosh kiyim, issiq kiyim, oyoq kiyimlar qaytarib olingan. Chunki bu qaytarib olingan kiyimlar yana Rossiyadan Turkistonga evakuatsiya qilinayotgan, yupun kiyimli bolalarga yetkazilishi kerak edi. Masalan, 1921-yil 12-noyabrda Orenburgdan Turkistonga yo‘l olgan 203-evakuatsiya sanitariya poyezdining kuzatuvchi-tarbiyachisi M.Sunchalayevga yupun kiyimdagi bolalar uchun 72 ta palto, 36 juft oyoq kiyimi berilgan. Albatta, Orenburg–Toshkent oralig‘ida foydalanilgan palto va oyoq kiyimlari M.Sunchalayev tomonidan yana Orenburgga qaytarilishi hamda ulardan keyingi evakuatsiya jarayonida foydalanilishi kerak edi. Toshkentga yetib kelgan bolalarni kiyim-kechak bilan ta’minlash Turkiston MIQ, XKS hamda Turkiston MIQ huzuridagi Ochlarga yordam ko‘rsatish markaziy komissiyasi zimmasiga yuklatilgan [23. B. 142].

Mavjud arxiv manbalari tahlili shundan dalolat beradiki, Turkiston MIQ va XKS rahbariyati aholini ko‘chirishni to‘xtatish to‘g‘risida markazga bir necha bor murojaat qilgan. Ammo bolsheviklar o‘lkaga Volgabo‘yi, Uraloldi hududlaridan ochlarni ko‘chirish ishlarini davom ettiravergan. Hatto bu jarayonda 1922-yildan Turkiston rahbariyatini xabardor qilmasdan ham uyushgan holda ko‘chirish ishlari davom ettirilgan. Masalan, Turkiston MIQ o‘zining 1922-yil 12-yanvardagi majlisida Volgabo‘yidan uyushgan holda 700 nafar dehqon ko‘chib kelganligini muhokama qilib, ularni “ocharchilikka duchor bo‘lganlar sifatida qabul qilib, [Turkiston] mehnat xalq komissarligi va [o‘lka] Ochlarga yordam ko‘rsatish markaziy komissiyasi ixtiyoriga jo‘natish” to‘g‘risidagi qarorni qabul qilgan [16. B. 57].

Turkistonga evakuatsiya qilingan ochlarga o‘lka hukumati va Turkiston sog‘liqni saqlash xalq komissarligi tomonidan tibbiy yordam ko‘rsatilgan. Buning uchun Turkiston markaziy evakuatsiya boshqarmasi qoshidagi ochlarni qabul qilish punktlarida tibbiy-sanitariya xizmati bo‘limlari tashkil etilgan. Bu yerda qabul qilingan ochlar tibbiy tekshuruvdan o‘tkazilgan, kasal holatdagilarga ambulator yoki statsionar tarzda tibbiy yordam ko‘rsatilgan hamda dori-darmonlar bilan ta’minlangan. Barcha temir yo‘l stansiyalari och-qochoqlar va evakuatsiya qilib keltirilganlar bilan to‘lib toshgan va “kasallik tarqatadigan o‘choqqa” aylangan. Chunki o‘lkaga kelayotganlar orasida vabo, tif va boshqa kasallikka chalinganlar, shu kasaliklar ortidan vafot etganlari bor edi. Shu sababli, kasallik epidemiyasini oldini olish uchun shifokor va hamshiralar og‘ir sharoitlarda ishlarni bajarishgan. Qolaversa, evakuatsiya qilinganlar belgilangan joylarga tarqatib bo‘lingach, ularga tibbiy yordam ko‘rsatish ustidan nazorat kuchaytirilgan. Tibbiy-sanitariya xizmati bo‘limi mavjud holatlarni yaxshilash maqsadida, evakuatsiya qilingan aholi orasida yuqumli kasalliklarning aniq hisobini o‘rgangan, kasallikka chalinganlar soniga qarab ko‘p yoki ozroq vaqt davomida davolash ishlarini amalga oshirgan. Masalan, 1921 yilda Turkiston sog‘liqni saqlash xalq komissarligi Rossiyaning ocharchilik hududlaridan evakuatsiya qilingan 1000 nafar kishini chechakka qarshi emlagan [17. B. 43].

1922-yil bahorida o‘lkada yuzaga kelgan iqtisodiy qiyinchilik va oziq-ovqat tanqisligi ko‘chirib keltirilgan ochlarni boqishda muammolarni keltirib chiqargan. Ayniqsa, bu vaqtga kelib, Farg‘onada ocharchilik yana qaytadan boshlangan. Vaziyat shundayligicha qolsa, farg‘onaliklar ocharchilikdan qirilib ketishini yaxshi anglagan viloyat rahbarlari tez fursatlarda Turkiston MIQga murojaat yo‘llagan. 1922-yil 9-avgustda Farg‘ona viloyati ochlarga yordam komissiyasi raisi o‘rinbosari M.Xo‘jayev tomonidan yo‘llangan murojaatda:

“Viloyatda ocharchilikka qarshi kurashishga yetarli mablag‘ qolmadi. Aholining aksariyati ocharchilikdan azob chekmoqda. Farg‘onaga Volgabo‘yi, Uraloldi hududidan ko‘chirilgan ochlarni boqishga imkon yo‘qligi sababli ularni tez fursatda o‘z yurtiga qayta ko‘chirish lozim. Shundagina qishloqlarda ocharchilik bilan kurashayotgan aholini qutqarish mumkin”, deyilgan. Shu sababli 1923-yilning oxiri va 1924-yil boshlaridan Turkistonga migratsiya tarzida kelganlar o‘z yurtiga ko‘chirila boshlangan [7. B. 5].

XULOSA

Turkistonda bolsheviklar boshqaruv tizimining o‘rnatilishi natijasida o‘lka aholisi rossiyalik ochlarga yordam berish ishlarini amalga oshirdi. Ya’ni, Rossiyaning ocharchilik yuz bergan guberniyalari aholisini oziq-ovqat bilan ta’minladi hamda o‘sha hududlardan o‘lkaga evakuatsiya qilinganlarni qabul qildi. Biroq Turkiston aholisi ocharchilik (1917–1919) girdobidan endigina chiqib, uning oqibatlarini bartaraf etayotgan edi. Markaz bunga jiddiy e’tibor bermay, Rossiyaning ocharchilik yuz bergan guberniyalaridan minglab ochlarni o‘lkaga ko‘chirib keltirdi. Volgabo‘yi va Uraloldi hududlarida hosilsizlik ro‘y berishi natijasida markaz rahbariyati zudlik bilan chora-tadbirlar ko‘rdi, xususan, ochlarni boshqa “hosildor hududlar”ga evakuatsiya qildi. Oqibatda ocharchilik hukm surayotgan hududlardan Turkistonga 320 mingdan ortiq katta-kichik yoshdagi ochlar ko‘chib keldi.

Adabiyotlar:

1. *Mirziyoyev Sh.M.* Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 591 b.

2. *Манелис Б.Л.* Из истории государственно-правовых взаимоотношений Туркестанской АССР и РСФСР. – Ташкент: Фан. 1966. – 88 с.

3. *Нарметов С.* Средней Азии в борбе против голода в Централных районах России в 1921–1922 гг. // Известия АН ТССР. 1974. – № 5. – С. 84–86.

4. *Морозов Н.* Именем Илича // Ленинабадская правда. – 1980. – №2. – С.15–16.

5. *Алиакберова Н.М., Голдфарб Н., Эргашев А.* Размещение населения Ферганской долины (демографический аспект). – Ташкент: Фан, 1990. – 49 с.

6. *Набиев Ф.Х.* К характеристике продоволственного положени в Туркестане 1921–1924 годов // Общественные науки в Узбекистане. –1994. – №8. – С. 34– 48.

7. *Rajabov Q.* Turkistonda ocharchilik oqibatlari // “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasi. – 2021-yil 29-oktabr.

8. *Расулов А., Режаббоев Н.* Туркистонда очларга ёрдам кўрсатиш комиссияси фаолиятидан. – Фарғона, 2012. – 126 б.

9. O‘zbekiston Milliy arxivi (O‘zMA), R. 29-fond, 3-ro‘yxat, 1973-ish, 5-varaq.

10. O‘zMA, R. 25-fond, 1-ro‘yxat, 740-ish, 59-varaq.

11. O‘zMA, R. 17-fond, 1-ro‘yxat, 927-ish, 209-varaq.

12. O‘zMA, R. 17-fond, 1-ro‘yxat, 287-ish, 18-varaq.

13. O‘zMA, R. 17-fond, 1-ro‘yxat, 926-ish, 5-varaq.

14. O‘zMA, R. 25-fond, 1-ro‘yxat, 483-ish, 406-varaq.

15. O‘zMA, R. 29-fond, 3-ro‘yxat, 391-ish, 176-varaq.

16. O‘zMA, R.17-fond, 1-ro‘yxat, 311-ish, 57-varaq va orqasi.

17. O‘zMA, R.621-fond, 1-ro‘yxat, 19-ish, 43-varaq.

18. Известия (ТуркЦИК), 27 июля, 12 августа 1921 г.

19. Известия (ТуркЦИК), 1 января 1922 г.

20. *Мамадалиев И.А.* Из истории помощи Туркестанской АССР голодающему населению Поволжя (1921–1923 гг.). – Худжанд: Рахим Джалил, 2003. –С. 53

21. *Фёдорова Г.* “Всё на борбу с голодом!” // Южний Урал. – 1989. – №16. – С.10–19.

22. *Поляков В.А.* Поволжский голод начала 1920-х гг.: к историографии проблемы // Новый исторический вестник. – 2005. – № 1. – С. 38–46.

23. Rasulov A. Türkistan ve İdil-Ural Halkları Arasındaki İlişkiler (1917–1924). – Ankara, 2017. – S. 130–131, S. 141.

EVACUATION OF RUSSIAN HUNGER PEOPLE TO TURKESTAN

S.S. To‘raxo‘jayev[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies. 2026. 1(93). 47-54.

[1]Andijan State University, Andijan, 170100, str. University, 129 (Uzbekistan). E-mail: agsu_info@edu.uz

Key words: *famine, famine relief commission, famine areas, evacuation, food, shelter, boarding school, orphanage.*

This article is described the evacuation of the starving population of the Volga and Ural regions of Russia to the territory of the Turkestan ASSR in the 1920s and their provision and settlement with food, clothing and other supplies, that is, the measures taken by the regional government during this period. Also, the information on the assistance provided by the government and the tolerant population of Turkestan to the starving Russians who came to our country in the form of migration, as well as the reasons and processes of the Bolsheviks' evacuation of the starving to Turkestan, was analyzed on the basis of archival materials and scientific literature and received its objective solution. As a result of the crop failure in the Volga and Ural regions, the leadership of the Center was forced to take urgent measures, in particular, to evacuate the hungry to other "fertile regions". As a result, more than 320 thousand hungry people of all ages were evacuated from the famine-stricken regions to Turkestan. The Soviet authorities, taking into account the somewhat favorable situation in Turkestan, demanded that the regional government accept peasants, workers and their families being evacuated from the famine-stricken regions of Russia. As a result, those who arrived in the region were provided with shelter, food and clothing through the efforts of the Turkestan MIK, HKS and the local population. The hungry Russians were received equally by the Turkestans, regardless of age, gender and nationality. The people of Turkestan, showing examples of universal humanity and tolerance, as well as loyalty to national and religious values, shared their livelihood with the displaced peoples. Also, children and young people up to draft age were evacuated to the country from the famine-stricken regions of Russia. They were settled in all regions of Turkestan, in particular, in the Fergana region. The work of providing children from the famine-stricken regions with food, clothing and shelter was carried out by the "Central Children's Sub-Commission" under the Turkestan Central Military District. In particular, the issue of placing children was resolved by placing them in "Children's Homes", in the care of various organizations, and in the homes of the population. Moreover, the people of the region, who had just escaped the famine, demonstrated their childlike courage and tolerance, adopting several of the children evacuated from the famine-stricken areas as their own, leaving an indelible mark on the history of the Motherland. Representatives of the population evacuated from the famine-stricken regions of Russia were resettled in Turkestan for a certain period. Therefore, they began to be re-evacuated to their homeland. Despite the difficulties, the Turkestan government took many measures to accelerate the re-evacuation of the hungry. In particular, the Central Committee of the Turkestan Central Committee was able to fulfill important tasks in re-evacuating the hungry refugees from the Volga and Ural regions of Russia to their homeland.

References:

1. Mirziyoyev, Sh.M. (2017). *Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz* [We will continue our path of national development with determination and take it to a new level]. Vol. 1. Tashkent: Uzbekistan.

2. Manelis, B.L. (1966). *Iz istorii gosudarstvenno-pravovyh vzaimootnoshenij Turkestanskoj ASSR i RSFSR* [From the history of state and legal relations between the Turkestan ASSR and the RSFSR]. Tashkent: Fan.

3. Narmetov, S. *Srednej* Azii v borbe protiv goloda v Centralnyh rajonah Rossii v 1921–1922 gg. [Central Asia in the fight against famine in the central regions of Russia in 1921-1922]. *Izvestiya AN TSSR*. No 5. Pp. 84-86.

4. Morozov, N. (1980). Imenem Ilicha [*In the name of Ilyich*]. *Leninabadskaya pravda*. No 2. Pp. 15-16.

5. Aliakberova, N.M., Gol'dfarb, N., Ergashev, A. (1990). *Razmeshchenie naseleniya Ferganskoj doliny (demograficheskij aspekt)* [Population distribution in the Fergana Valley (demographic aspect)]. Tashkent: Fan.

6. Nabiyev, F.H. (1994). *K harakteristike prodovolstvennogo polozheni v Turkestane 1921-1924 godov* [On the characterization of the food situation in Turkestan in 1921-1924]. *Obshchestvennye nauki v Uzbekistane*. No 8. Pp. 34-48.

7. Ражабов, Q. (2021). Turkistonda ocharchilik oqibatlari [The consequences of famine in Turkestan]. *O'zbekiston adabiyoti va san'ati*. October 29, No. 44.

8. Rasulov, A., Rejabboyev, N. (2012). *Turkistonda ochlarga yordam ko'rsatish komissiyasi faoliyatidan* [From the activities of the commission to help the hungry in Turkestan]. Fergana.

9. O'zbekiston Milliy arxivi (O'zMA) [National Archive of Uzbekistan (NA of Uz)]. Fund R-29, List-3, Folding Volume-1973, sheet 5.

10. NA of Uz. Fund R-25, List-1, Folding Volume-740, sheet 59.

11. NA of Uz. Fund R-17, List-1, Folding Volume-927, sheet 209.

12. NA of Uz. Fund R-17, List-1, Folding Volume-287, sheet 18.

13. NA of Uz. Fund R-17, List-1, Folding Volume-926, sheet 5.

14. NA of Uz. Fund R-25, List-1, Folding Volume-483, sheet 406.

15. NA of Uz. Fund R-29, List-3, Folding Volume-391, sheet 176.

16. NA of Uz. Fund R-17, List-1, Folding Volume-311, sheet and back 57.

17. NA of Uz. Fund R-621, List-1, Folding Volume-19, sheet-43.

18. (1921). Izvestia (TurkCEC). July 27, August 12.

19. (1922). Izvestia (TurkCEC). January 1.

20. Mamadaliev, I.A. (2003). Iz istorii pomoshchi Turkestanskoj ASSR golodayushchemu naseleniyu Povolzhya (1921–1923 gg.) [From the history of assistance from the Turkestan ASSR to the starving population of the Volga region (1921-1923). Khujand: Rakhim Jalil.

21. Fyodorova, G. (1989). 'Vsyo na borbu s golodom!' ['*Everything to fight hunger!'*]. *Yuzhnij Ural* (newspaper, Orenburg). No 16. Pp. 10-19.

22. Polyakov, V.A. (2005). Povolzhskij golod nachala 1920-h gg.: k istoriografii problem [The Volga famine of the early 1920s: towards the historiography of the problem]. *Novyj istoricheskij vestnik*. No 1. Pp. 38-46.

23. Rasulov, A. (2017) *Türkistan ve İdil-Ural Halkları Arasındaki İlişkiler (1917-1924)* [Relations Between the Peoples of Turkestan and the Volga-Ural Region (1917-1924)]. Ankara.

Muallif haqida ma'lumot:

TO'RAXO'JAYEV Saidmurod Saidvoqqosovich – Andijon davlat universiteti O'zbekiston tarixi kafedrasi o'qituvchisi. E-mail: saidmohidil@gmail.com.